



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	



UO'K: 657.6:006.32

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI

Bekchanov Faxriddin Atabekovich
PhD, Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada AKT sohasida moliyaviy natijalar auditi metodologiyasini takomillashtirishning yaxlit tizimi asoslangan. Tizim to'rt ustundan iborat: olti bosqichli audit metodologiyasi (tartib), katta ma'lumotlar tahliliga asoslangan raqamli audit (qurol), tipik xatolarning besh guruhli klassifikatori (bilim) va iqtisodiy-matematik modellashtirish (o'lchov). Ustunlar auditning xalqaro standartlari (ISA) doirasida bog'lanib, dalil manbaini uchinchi bobda yaratilgan hisob poydevoridan oladi. Modellashtirish rasmiy besh yillik qatorlarda baholanib, xizmatlar trendi $Y = 12,94 \cdot e^{(0,356 \cdot t)}$ (yillik o'sish – 42,7 foiz, $R^2 = 0,978$) ko'rinishida olingan; senariylar 2026-yil uchun 87,8–126,4 trln so'm oralig'ini beradi. Tizimning hisob metodologiyasi bilan ikki tomonlama bog'liqligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy natijalar auditi; audit metodologiyasi; raqamli audit; xatolar klassifikatori; iqtisodiy-matematik modellashtirish; auditning xalqaro standartlari; AKT sohasi.

Аннотация: В статье обоснована целостная система совершенствования методологии аудита финансовых результатов в сфере информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Система включает четыре взаимосвязанных компонента: шестиступенчатую методологию аудита (процедура), цифровой аудит, основанный на анализе больших данных (инструмент), классификатор типичных ошибок, состоящий из пяти групп (база знаний), и экономико-математическое моделирование (инструмент оценки). Все компоненты интегрированы в рамках Международных стандартов аудита (ISA) и используют доказательственную базу, сформированную на основе методологии бухгалтерского учёта, разработанной в третьей главе исследования. Моделирование выполнено на основе официальных данных за пятилетний период; тренд объёма услуг представлен моделью $Y = 12,94 \cdot e^{(0,356 \cdot t)}$ (среднегодовой темп роста – 42,7 %, $R^2 = 0,978$), а сценарные расчёты на 2026 год находятся в диапазоне 87,8–126,4 трлн сумов. Показана двусторонняя взаимосвязь разработанной системы с методологией бухгалтерского учёта.

Ключевые слова: аудит финансовых результатов; методология аудита; цифровой аудит; классификатор ошибок; экономико-математическое моделирование; Международные стандарты аудита; сфера информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).

Abstract: The article substantiates an integrated system for improving the methodology of auditing financial results in the ICT sector. The system consists of four pillars: a six-stage audit methodology (procedure), digital auditing based on big data analysis (tool), a classifier of typical errors of five groups (knowledge) and economic-mathematical modeling (measurement). The pillars are linked within the framework of the International Standards on Auditing (ISA) and draw their source of evidence from the accounting foundation created in the third chapter. Modeling is assessed on official five-year series, with the services trend obtained as $Y = 12,94 \cdot e^{(0,356 \cdot t)}$ (annual growth 42.7%, $R^2 = 0.978$); scenarios give a range of 87.8–126.4 trillion soums for 2026. The two-way link of the system with the accounting methodology is demonstrated.

Keywords: audit of financial results; audit methodology; digital audit; error classifier; economic-mathematical modeling; International Standards on Auditing; ICT sector.

KIRISH

Hisob metodologiyasini takomillashtirish audit uchun ishonchli axborot poydevorini yaratadi, ammo ishonchning o'zi — moliyaviy natijalarning haqqoniyligi to'g'risidagi xulosa — faqat sifatli audit orqali beriladi. AKT sohasida bu vazifa alohida murakkablikka ega: moliyaviy natija millionlab mayda operatsiyalardan shakllanadi,



paket tariflar tushumni taqsimlash qarorlarini, valyutaviy oqimlar esa kurs ta'sirini audit e'tiborining markaziga olib chiqadi. Sohaning jadal o'sishi — xizmatlar hajmining 2020–2024-yillarda 13,85 trln so'mdan 56,17 trln so'mgacha ko'payishi (Milliy statistika qo'mitasi, 2026-yil), "O'zbektelekom"ning kapital bozoriga chiqishi — moliyaviy hisob va audit tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish choralari hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida audit sifatini strategik masalaga aylantirdi. 2025-yil oxirida mamlakatda 175 ta auditorlik tashkiloti va 1 296 nafar sertifikatli auditor faoliyat yuritmoqda (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2025-yil).

Amaliyot tahlili audit tizimini yanada rivojlantirishning to'rtta ustuvor yo'nalishini ko'rsatdi: ichki nazorat bahosini chuqurlashtirish, soha xatar xaritasini shakllantirish, analitik amallarni kengaytirish va raqamli vositalardan foydalanishni rivojlantirish. Ushbu yo'nalishlarning umumiy asosi — sohaga moslashtirilgan, yaxlit audit metodologiyasini shakllantirish va takomillashtirish zaruratidir. Ayni paytda alohida audit vositalari (bosqichli yondashuv, raqamli tekshiruv, xatolar tasnifi, miqdoriy model) o'zaro uyg'unlashtirilganda yanada yuqori samaradorlikni ta'minlaydi: tartib qayerda tekshirishni belgilaydi, qurol uning amaliy ijrosini ta'minlaydi; qurol ma'lumotni qayta ishlaydi, bilim esa nimani izlashni aniq yo'naltiradi; o'lchov esa kutilmani shakllantirib, og'ishlarni baholash imkonini beradi. Demak, eng samarali yechim — to'rt unsurni yagona tizimga birlashtirishdir.

Maqolaning maqsadi — AKT sohasida moliyaviy natijalar audit metodologiyasini takomillashtirishning yaxlit tizimini asoslash: uning to'rt ustunini, ichki bog'lanishlarini, hisob poydevori bilan aloqasini va auditning xalqaro standartlari bilan mosligini ko'rsatish. Vazifalar: tizim arxitekturasini shakllantirish; har bir ustunning tayanch yechimini umumlashgan holda bayon etish; ustunlararo va hisob bilan bog'lanishlarni ochish; modellashtirish natijalarini rasmiy ma'lumotlarda ko'rsatish. Tadqiqot obyekti — soha korxonalari, jumladan, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi; predmet — moliyaviy natijalar audit metodologiyasini tizimli takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit metodologiyasining konseptual asosini auditning xalqaro standartlari tashkil etadi: ular rejalashtirish, xatarni aniqlash va baholash, ahamiyatlilik, dalillar va analitik amallar talablarini belgilaydi (IFAC, 2018). Milliy adabiyotda auditning umumnazariy va amaliy asoslari fundamental ishlarda yoritilgan (Tulaxodjayeva va boshq., 2018; Avlokulov, 2019), xalqaro standartlar talablari tahlil etilgan (Dusmuratov va boshq., 2020). Moliyaviy natijalar auditining tizimli tashkil etilishi (Teplyakov, 2007) va aynan aloqa tashkilotlarida auditning o'ziga xosligi (Garchuk-Ivanova, 2007) xorijiy adabiyotda tadqiq etilgan. Ularda xatolarni guruhlash va tarmoq xususiyatli yondashuv an'anasi shakllangan.

Zamonaviy xalqaro adabiyotning markaziy yo'nalishi — raqamli audit. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va blokcheynning auditga ta'siri bibliometrik umumlashtirilgan (Abu Huson va boshq., 2024); katta ma'lumotlar tahlilining auditdagi o'rni tizimli sharh etilgan (Hezam va boshq., 2023); ma'lumotlar analitikasi, mashina o'rganishi va butun majmuani tekshirish bog'liqligi asoslangan (Huang va boshq., 2022); raqamli texnologiyalarning auditorlik firmalari uchun imkoniyati va chaqiriqlari tahlil qilingan (Vitali va Giuliani, 2024), sun'iy intellektning real tatbiq holati baholangan (Bakarich va O'Brien, 2021). Tushumni tan olish bo'yicha empirika (Boujelben va Kobbi-Fakhfakh, 2020; Lee va Choi, 2024) esa audit xatar xaritasining dolzarb unsurlarini ko'rsatadi.

Xizmat korxonalari faoliyatini miqdoriy baholash va boshqarishga oid tadqiqotlar, jumladan, mazkur jurnaldagi ish (Uralov, 2026), moliyaviy natija dinamikasini modellashtirishning qiymat boshqaruvi uchun ahamiyatini ko'rsatadi. Sharh bo'shliqni aniqlaydi: adabiyotda auditning umumiy standartlari, raqamli audit vositalari va miqdoriy usullar alohida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular AKT sohasi moliyaviy natijalari uchun tartib, qurol, bilim va o'lchovni yagona tizimga birlashtiruvchi, hisob poydevori bilan bog'langan yaxlit metodologiyaga ulanmagan. Mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tizimli-konstruktiv dizaynda bajarildi: amaliyot tahlilidagi audit bo'shliqlaridan kelib chiqib, to'rt ustunli arxitektura loyihalandi, ustunlararo va hisob bilan bog'lanishlar aniqlandi, modellashtirish esa rasmiy ma'lumotlarda baholandi. Usullar: auditning xalqaro standartlarini tahlil qilish, tizimli tahlil va sintez, statistik (regression) tahlil hamda monografik kuzatish. Modellashtirish parametrlari rasmiy besh yillik qatorda eksponensial trend bo'yicha baholandi; determinatsiya koeffitsiyenti va prognoz oraliqlari hisoblab chiqildi.

Tizim ishonchliliigi uchta talab bilan ta'minlanadi: birinchidan, har bir ustun aniq ISA talablariga bog'lanadi; ikkinchidan, ustunlar yagona mantiqiy zanjir (tartib → qurol → bilim → o'lchov) hosil qiladi; uchinchidan, miqdoriy natijalar tekshiriladigan rasmiy ma'lumotlarga tayanadi, senariy farazlari esa shartli va ochiq bayon etiladi.




Chegara: aniq dasturiy platforma arxitekturasida va modellarning batafsil konfiguratsiyasi alohida texnik tadqiqot predmetidir; uzoq muddatli prognoz besh nuqtali qatorning cheklovlari tufayli ehtiyotkorlik bilan talqin etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizim to'rt ustun va ularni birlashtiruvchi ISA doirasidan iborat (1-rasm). Birinchi ustun — tartib: olti bosqichli audit metodologiyasi (rejalashtirish va sohani o'rganish — ichki nazoratni baholash — xatar va ahamiyatlilik — analitik amallar — dalil to'plash — umumlashtirish va xulosalash), har bir bosqich ISA talabiga bog'langan, auditorlik xatari esa $AX = XX \times NX \times AnX$ formulasida unsurlarga ajratilib boshqariladi. Ikkinchi ustun — qurol: katta ma'lumotlar tahliliga asoslangan raqamli audit — olti bosqichli ma'lumotlar quvuri, o'nta avtomatlashtirilgan testdan iborat kutubxona va butun majmuani (yuz foiz qamrovda) tekshirish; texnologiyaning ishlashi voronka misolida ko'rinadi (10 000 000 yozuvdan 1 200 belgi, 85 ko'rik, 7 tuzatish).

Uchinchi ustun — bilim: moliyaviy natijalar hisobi va auditidagi tipik xatolarning besh guruhli (tasnif, tan olish, taqsimot, baholash, transformatsiya), o'n besh kodli klassifikatori; har bir xato aniqlash amali va profilaktika instituti bilan juftlanib, chastota-oqibat matritsasiga joylashtiriladi. To'rtinchi ustun — o'lchov: moliyaviy natijalarni iqtisodiy-matematik modellashirish. Soha darajasida eksponensial trend qo'llaniladi — rasmiy besh yillik qatorda xizmatlar hajmi $Y = 12,94 \cdot e^{(0,356 \cdot t)}$ modeliga mos keladi (o'rtacha yillik o'sish — 42,7 foiz, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,978$); eksport uchun $Y = 185,6 \cdot e^{(0,401 \cdot t)}$ (49,4 foiz, $R^2 = 0,971$). Ustunlar ISA doirasida bog'lanadi va — bu tizimning kalit xususiyati — dalil manbaini uchinchi bobda yaratilgan hisob poydevoridan (subschyotlar, pasportlar, vedomostlar, ish varaqalari) oladi (1-rasm).



Tartib — qaerda tekshirishni, qurol — qanday tekshirishni, bilim — nimani izlashni, olchov — nima kuchi belgilaydi

Tizimning dalil manbai — uchinchi bobda yaratilgan hisob poydevori (subschyotlar, pasportlar, vedomostlar, ish varaqalari)

1-rasm. Moliyaviy natijalar auditining to'rt ustunli yaxlit tizimi¹

Ustunlarning yechimi, ISA bilan bog'liqligi va hisob dalili bilan aloqasi 1-jadvalda umumlashtirilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, har bir ustun aniq vazifani bajaradi, tegishli ISA talabiga tayanadi va uchinchi bobdagi hisob institutlaridan oziqlanadi. Tizim shu tariqa "tartib — qurol — bilim — o'lchov" to'liq zanjirini hisob poydevori ustiga quradi (1-jadval)


¹ Manba: Muallif ishlanmasi.

1-jadval. Audit tizimining to'rt ustuni: vazifa, ISA bog'lanishi va hisob dalili²

Ustun	Vazifasi	ISA bog'lanishi	Hisob poydevoridan dalil
1. Tartib (olti bosqichli metodologiya)	Qayerda va qanday ketma-ketlikda tekshirish	ISA 300, 315, 320, 330, 500, 520, 450, 700	Barcha hisob institutlari — umumiy manba
2. Qurol (raqamli audit)	Butun majmuani qanday tekshirish	ISA 500 (tizim axboroti ishonchliligi)	Subschiyot aylanmalari, billing ma'lumoti
3. Bilim (xatolar klassifikatori)	Nimani izlash va profilaktika	ISA 315 (xatar), ISA 240 (firibgarlik)	Tan olish va taqsimot yozuvlari
4. O'lchov (modellashirish)	Nima kutish va og'ishni baholash	ISA 520 (analitik amallar)	Daromad subschiyotlari kesimidagi dinamika

Manba: muallif ishlanmasi.

Ustunlarning o'zaro bog'lanishi tizimning yaxlitligini ta'minlaydi. Tartib va qurol bog'lanishi: olti bosqichli metodologiya beshinchi (dalil to'plash) bosqichi aynan raqamli audit quroli bilan bajariladi — butun majmua testlari dalil manbaiga aylanadi. Bilim va tartib bog'lanishi: xatolar klassifikatori uchinchi (xatar va ahamiyatlilik) bosqichda xatar xaritasining tayyor asosini beradi — auditor "nimani izlashni" oldindan biladi. O'lchov va tartib bog'lanishi: modellashirish to'rtinchi (analitik amallar) bosqichda kutilma-koridorni shakllantiradi — haqiqiy ko'rsatkich model prognozi bilan taqqoslanib, og'ishlar aniqlanadi. Modellashirishning amaliy kuchini senariylar ko'rsatadi (2-rasm): trend asosida 2025–2026-yillar uchun uchta senariy shakllantiriladi — konservativ, bazaviy va optimistik; 2026-yil uchun xizmatlar hajmining oralig'i 87,8 dan 126,4 trln so'mgacha. Korxona darajasida omilli model (Daromad = Abonentlar × ARPU) daromad o'zgarishini omillarga ajratadi: shartli misolda o'sishning 162 mlrd so'mi abonentlar soni, 277,2 mlrd so'mi ARPU omilidan bo'lib, jami 439,2 mlrd so'mni tashkil etadi (2-rasm).

2-rasm. Xizmatlar hajmi trendi va 2025–2026-yillarga uchta senariy³

Tizimning markaziy xususiyati — uning hisob metodologiyasi bilan ikki tomonlama bog'liqligidir. Bir tomondan, audit tizimi hisob poydevoridan oziqlanadi: subschiyotlar kesimli dalilni, pasportlar tushum taqsimotining dalilini, vedomostlar xarajat taqsimotining dalilini, ish varaqalari esa transformatsiyaning dalilini beradi — uchinchi bobda yaratilgan har bir institut to'rtinchi bobda audit daliliga aylanadi. Ikkinchi tomondan, audit hisob tizimiga teskari aloqa beradi: klassifikator aniqlagan tipik xatolar hisob siyosati va nazorat institutlarini takomillashtiradi,

² Manba: Muallif ishlanmasi.

³ Manba: Milliy statistika qo'mitasi, 2026 ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



modellashirish esa prognoz va rejalashtirishni kuchaytiradi. Shu tariqa hisob va audit metodologiyalari yagona, o'zaro mustahkamlovchi organizmni tashkil etadi.

Natijalarning muhokamasi tizimni xalqaro kontekst bilan bog'laydi. Raqamli audit ustuni xalqaro adabiyotda asoslangan butun majmuani tekshirish yo'nalishining (Huang va boshq., 2022; Hezam va boshq., 2023) sohaga moslashtirilgan tatbig'idir; klassifikator va analitik kutilmalar tushumni tan olish nuqtalaridagi xalqaro miqyosda qayd etilgan muammolarni (Boujelben va Kobbi-Fakhfakh, 2020; Lee va Choi, 2024) tizimli qamraydi; modellashirish esa xizmat ko'rsatish korxonalari qiymatini baholash (Uralov, 2026) uchun prognoz va senariy asosini beradi. Tizimning afzalliklari ham yaqqol namoyon bo'ladi: besh nuqtali qator asosida prognozlash yondashuvi amaliy baholash uchun ishonchli asos yaratadi, senariy farazlari tizimni moslashuvchan va muntazam yangilab borish imkonini beradi, mashina o'rganishi modellari auditorlik tahlilini qo'llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi, model natijasi esa audit dalillarini aniqlash va baholashni yanada maqsadli tashkil etishga ko'maklashuvchi muhim yo'naltirgich hisoblanadi. Inson mulohazasi tizimning har bir bosqichida yakuniy qaror qabul qilishning asosiy omili bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, auditdagi tizimli bo'shliqlar (yuzaki nazorat bahosi, xatar xaritasining yo'qligi, tor analitika, raqamli vositalarning qo'llanilmasligi) faqat yaxlit metodologiya bilan yechiladi; ikkinchidan, to'rt ustunli arxitektura (tartib — qurol — bilim — o'lchov) audit jarayonining barcha jihatlarini qamraydi va ularni ISA doirasida bog'laydi; uchinchidan, ustunlararo bog'lanishlar (qurolning dalil to'plashga, bilimning xatar xaritasiga, o'lchovning analitik kutilmaga ulanishi) tizim samarasini alohida vositalar yig'indisidan yuqori qiladi; to'rtinchidan, modellashirish rasmiy ma'lumotlarda ishonchli baholandi (xizmatlar trendi $Y = 12,94 \cdot e^{(0,356 \cdot t)}$, $R^2 = 0,978$; senariylar 2026-yil uchun 87,8–126,4 trln so'm); beshinchidan, tizimning hisob metodologiyasi bilan ikki tomonlama bog'liqligi — dalilni hisobdan olishi va hisobga teskari aloqa berishi — uning markaziy o'ziga xosligidir.

Takliflar: auditorlik tashkilotlariga — to'rt ustunli metodologiyani, testlar kutubxonasini va xatolar klassifikatorini ichki standart sifatida qabul qilish; soha korxonalariga — ichki auditni ushbu tizim asosida tashkil etish va modellashirishni rejalashtirishda qo'llash; tartibga soluvchi organlar va kasbiy birlashmalarga — metodologiyani va xatolar klassifikatorini soha uslubiy tavsiyalari sifatida rasmiylashtirish, sifat ko'rsatkichining sohaviy monitoringini yo'lga qo'yish; oliy ta'lim tizimiga — raqamli audit va "ma'lumotlar auditori" kompetensiyalarini o'quv dasturlariga kiritish. Tizim hisob metodologiyasi bilan birgalikda moliyaviy natijalar hisobi va auditning yaxlit, amaliyotga tatbiq etishga tayyor metodologiyasini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Huson, Y., Sierra-García, L. and Garcia-Benau, M.A. (2024) 'A bibliometric review of information technology, artificial intelligence, and blockchain on auditing', *Total Quality Management & Business Excellence*, 35(1–2), pp. 91–113.
2. Avlokulov, A.Z. (2019) *Moliyaviy natijalar hisobi va auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
3. Bakarich, K.M. and O'Brien, P.E. (2021) 'The Robots are Coming... But Aren't Here Yet: The Use of Artificial Intelligence Technologies in the Public Accounting Profession', *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 18(1), pp. 27–43.
4. Boujelben, S. and Kobbi-Fakhfakh, S. (2020) 'Compliance with IFRS 15 mandatory disclosures: an exploratory study in telecom and construction sectors', *Journal of Financial Reporting and Accounting*, 18(4), pp. 707–728.
5. Hezam, Y.A.A., Anthonysamy, L. and Suppiah, S.D.K. (2023) 'Big Data Analytics and Auditing: A Review and Synthesis of Literature', *Emerging Science Journal*, 7(2), pp. 629–642.
6. Huang, F., No, W.G., Vasarhelyi, M.A. and Yan, Z. (2022) 'Audit data analytics, machine learning, and full population testing', *The Journal of Finance and Data Science*, 8, pp. 138–144.
7. IFAC (2018) *Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. New York: International Federation of Accountants.
8. Lee, W.J. and Choi, S.U. (2024) 'The effect of the new revenue recognition principle (IFRS 15) on financial statement comparability: Evidence from Korea', *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 54, 100601.
9. Milliy statistika qo'mitasi (2026) *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi ko'rsatkichlari*. Mavjud: <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 11.07.2026).



10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2025) Buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati sohasidagi holat. Mavjud: <https://gov.uz/uz/imv/news/view/128226> (murojaat sanasi: 11.07.2026).

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>

13. Tulaxodjayeva, M.M., Ilxomov, Sh.I., Ahmadjonov, K.B. va boshq. (2018) Audit. Toshkent: TDIU.

14. Vitali, S. and Giuliani, M. (2024) 'Emerging digital technologies and auditing firms: Opportunities and challenges', International Journal of Accounting Information Systems, 53, 100676.

15. Гарчук-Иванча, Н.Г. (2007) Аудит финансовых результатов в организациях связи: автореф. дис. ... к.э.н. Новосибирск.

16. Дусмуратов, Р.Д., Ризаев, Н.К. ва Назаров, Х.Х. (2020) Молиявий ҳисобот ва аудитнинг халқаро стандартлари. Тошкент: Иқтисод-молия.

17. Тепляков, А.Б. (2007) Учет финансовых результатов деятельности коммерческих организаций: автореф. дис. ... к.э.н. Москва.

18. Уралов, А. (2026) 'Хизмат кўрсатиш тармоқлари корхоналари қийматини баҳолаш ва бошқариш хусусиятлари', Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 4(6), 178–186-б. Mavjud: <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/4502>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>